

**PROKUROR NAZORATI YO'NALISHLARIDAN BIRINI NAZARIY ASOS VA  
AMALIY AHAMIYATI  
SUDLARDA IQTISODIY ISHLARI NIZOLARINI KO'RIB CHIQUISHDA  
PROKURORNING VAKOLATLARI**

**Imomaliyeva Sevinchbonu Azizxon qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" fakulteti 2-kurs  
talabasi Tel: +998 (88) 074-17-45 e-pochta : [sevinchbonu487sv@gamil.com](mailto:sevinchbonu487sv@gamil.com)*

Bugungi kundagi bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish sharoitida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan muhim islohotlarining katta qismini tadbirkorlikni va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ularga huquq va manfaatlarini himoya qilib, yanada keng imkoniyatlar yaratish va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash tashkil etmoqda. Agar ushbu masalalar bo'yicha qonun buzilishlari bo'lgan taqdirda esa sudda adolatli yechimni qabul qilish ayniqsa muhim. Shu sababli, iqtisodiy ishlarni ko'rishda "prokuror" ning ishtiroki katta rol o'ynaydi, chunki prokuror ishni ko'rib chiqishda faqat nazoratni amalga oshirish bilan cheklanib qolmasdan, ushbu nizolarni qonuniy hal qilishda va bu borada odil sudlovni ta'minlash bo'yicha kafolat sifatida ham rol o'ynaydi. Bilamizki, iqtisodiy nizolarni asosan, davlat manfaatlarini, budget mablag'lari, ekologik muammolar va zararlar bilan bog'liq masalalar tashkil etadi, aytmoqchimanki, prokurorning iqtisodiy nizolarni ko'rishda ishtirok etishi birinchi o'rinda davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda va himoya qilishda muhim.

Bundan tashqari sudlarda qonun ustuvorligini ta'minlash O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rnini mustahkamlash uchun ham muhim rol o'ynaydi, chunki prokurorning iqtisodiy sud protsessidagi ishtiroki O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir qiluvchi noqonuniy qarorlarga qarshi filtr vazifasini bajaradi va bu esa milliy sud tizimimizning xorijiy standartlarga moslashishiga yanada katta hissa qo'shadi.

Endi esa iqtisodiy sud ishlarini yuritishda prokurorning o'ri haqida batafsil tahlil qilsak:

Yuqorida aytib o'tganimdek, prokurorning iqtisodiy ishlarni ko'rishdagi o'ri juda muhim chunki uning roli jamiyatimizda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi nizolarni hal qilishda va davlatning manfaatlarini himoya qilishda qonun ustuvorligini kafolatlashda ahamiyat kasb etadi.

Ushbu faoliyatning asosiy poydevori O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi hisoblanadi. **Konstitutsiyamizning XXV bobi "Prokuratura organlari" to'g'risida bo'lib, 143-146-moddalarni o'z ichiga oladi.** 143-moddada prokuratura organlari butun O'zbekiston hududida qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi<sup>24</sup>. Ya'ni bu nima degani? Iqtisodiy sudlar tomonidan chiqarilayotgan qarorlar albatta

<sup>24</sup> <https://lex.uz/docs/-6445145#:~:text=143%2Dmodda,.prokurorlar%20amalga%20oshiradi.>

qonun ta'ablariga va normalariga muvofiq bo'lishi shart, ta'kidlab o'tish kerakki har bir organ bir-biridan mustaqil faoliyat yuritadi, shu jumladan sud ham prokuraturadan mustaqil, faqat bu jarayonda prokuror sudning mustaqil faoliyatni amalga oshirishiga ta'sir ko'rsatmagan holda qonunning aniq va bir xil ijro etilishi va nazoratni ta'minlaydi.

Bundan tashqari **“Prokuratura to'g'risida”** gi Qonun ham konstitusiyadan keying o'rinda muhim rol o'ynaydi chunki ayan ushbu qonun uning Konstitutsiyada mustahkamlangan rolini yanada ochib tahlil qilib beradi.

Xususan ushbu qonunning **4-moddasida sud iqtisodiy nizolarni ko'rib chiqishda ishtirok etish va qonunlarga zid hujjatlar ustidan protest keltirish huquqiga ega**<sup>25</sup>. Shuningdek, **33-moddasida** prokurorning fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari va manfaatlarini sud yo'li bilan samarali himoya qilinishini talab qilish maqsadida barcha sud bosqichlarida qonunda belgilangan tartibda ishtirok etishi belgilab qo'yilgan<sup>26</sup>.

Keyingi prokurorning maqomini yanada chuqur belgilab beradigan va ayna qanday huquq va majburiyatlarga ega ekanligini mustahkamlovchi qonun – Iqtisodiy protsessual kodeksidir.

Iqtisodiy protsessual kodeksning 49-moddasiga ko'ra prokuror:  
o'zining da'vo arizasi asosida qo'zg'atilgan ishlarda,  
davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida yerga oid munosabatlar;

davlat mulki bilan bog'liq ishlarda;  
atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzish;  
davlat budjetidan undiruvlar;  
o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratga bo'lgan mulk huquqini e'tirof etish;  
xususiy mulk sifatida egalik qilish va undan foydalanish faktini aniqlash;  
bojxona to'lovlarini undirish bilan bog'liq ishlarda ishtirok etishi mumkin ekanligini mustahkamlangan<sup>27</sup>.

Bunda ushbu ishlarda prokuror ish mazmuni bo'yicha o'z fikrini bayon etadi lekin uning boshqa shaxslar manfaatlarini ko'zlab, ularni himoya qilishga bog'liq da'vo arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishlar bundan mustasno.

<sup>25</sup> <https://lex.uz/acts/-106197#:~:text=iqtisodiy%20nizolarni%20ko%CA%BBrishda%20ishtirok%20etish%2C%20qonunlarga%20zid%20bo%CA%BBilgan%20sud%20hujjatlariga%20protest%20keltirish%3B>

<sup>26</sup> <https://lex.uz/acts/-106197#:~:text=Fuqarolarning%2C%20korxonalar%2C%20muassasalar%20va%20tashkilotlarning%20huquqlari%20hamda%20qonuniy%20manfaatlarini%20sud%20yo%CA%BBli%20bilan%20samarali%20himoya%20qilininishini%20ta%CA%BCminlash%20maqsadida%20barcha%20instansiya%20sudlarida%20ishlar%20ko%CA%BBriylayotganda%20prokuror%20qonunda%20belgilangan%20tartibda%20ishtirok%20etadi.>

<sup>27</sup> <https://lex.uz/mact/-3523891#:~:text=Prokuror%20o%CA%BBzining%20da%CA%BCvo,ishtirok%20etishi%20mumkin.>

Prokuror fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning manfaatlarini ko'zlab kiritgan da'vo arizasida da'vogarning huquqlaridan foydalanadi va unng majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, bunda kelishuv bitimi va mediativ kelishuv tuzish huquqi mustasno.

Tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlariga da'vo arizasini (arizani) — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar yoki ularning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga esa — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari yoki ularning o'rinbosarlari taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosari O'zbekiston Respublikasining barcha iqtisodiy sudlariga da'vo arizasi (ariza) taqdim etishga haqli<sup>28</sup>.

Iqtisodiy protsessual kodeksning 259-moddasiga muvofiq prokuror, yuqori turuvchi prokuor faqat prokuor ishtirokida ko'riladigan ish bo'yicha yoki qonunda prokuorning ishda ishtirok etishi nazarda tutilgan lekin, sud muhokamasining vaqti va joyi xabardor qilinmasdan ko'rilgan ish bo'yicha birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan qarori ustidan apellyatsiya protesti keltirishi mumkin<sup>29</sup>. Kassatsiya va taftish taribi ham qonun bilan belgilangan.

Qonunchilikda men o'zim duch kelgan aynan bir bo'shliq haqida va uni qanday qilib to'ldirish bo'yicha o'z fikrimni bildirib o'tmoqchiman.

Bilamizki Fuqarolik protsessual kodeksining 51-moddasida agar da'vogar rozi bo'lmasa, prokuor o'zi arz qilgan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirishga, qo'shimcha talablar bildirishga, da'vo talablarini miqdorini ko'paytirishga yoki kamaytirishga haqli emas<sup>30</sup>.


Lekin aynan ushbu jihatni men iqtisodiy protsessual kodeksda ko'rmadim va bu jihatni ham ushbu qonunga qo'shsak, ijobiy ta'sir qiladi deb o'ylayman, chunki IPK bo'yicha prokuror da'vo kiritisa, u da'vo pretmetini va uning asosini o'zgartirishi mumkinmi, yo'qmi aniq keltirilmagan bu esa prokurorga da'vogar xohishiga zid ravishda ishni boshqarish imkonini berishi mumkin deb o'ylayman va bu albatta protsessual mustaqillikka daxl qiladi. Masalan, Rossiya Federativ Respublikasini ladigan bo'lsak, uning Arbitraj protsessual kodeksiga prokuorning huquqlari da'vogarning huquqlari bilan tenglashtirilgan, bizda ham

<sup>28</sup> [https://lex.uz/mact/-3523891#:~:text=Tumanlararo%2C%20tuman%2C%20shahar%20iqtisodiy%20sudlariga,arizasi%20\(ariza\)%20taqdim%20etishga%20haqli.](https://lex.uz/mact/-3523891#:~:text=Tumanlararo%2C%20tuman%2C%20shahar%20iqtisodiy%20sudlariga,arizasi%20(ariza)%20taqdim%20etishga%20haqli.)

<sup>29</sup> <https://lex.uz/mact/-3523891#:~:text=Prokuror%2C%20yuqori%20turuvchi%20prokuror,apellyatsiya%20protesti%20keltirishga%20haqli.>

<sup>30</sup> <https://lex.uz/docs/-3517337#:~:text=Agar%20da%CA%BCvogar%20rozi%20bo%CA%BBlmasa%2C%20prokuror%20o%CA%BBzi%20arz%20qilgan%20talablarning%20asosini%20yoki%20predmetini%20o%CA%BBzgartirishga%2C%20qo%CA%BBshimcha%20talablar%20bildirishga%2C%20da%CA%BCvo%20talablarining%20miqdorini%20ko%CA%BBpaytirishga%20yoxud%20kamaytirishga%20haqli%20emas.>





shunday ya'ni tepada aytib o'tganimdek, prokuror da'vogarning huquqlaridan foydalanadi va majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, kelishuv bitimi va mediatsiya kelishuvi mustasno tartibda, lekin aynan nizo predmetini va uning asosini o'zgartirish bo'yicha biroz aniqliklar kiritilishi kerak deb o'ylayman. Chunki prokuror bu jarayonda yordamchi rolini o'ynashi kerak xo'jayin emas.

Ya'ni ushbu masalani hal qilish uchun xuddi FPK dagi kabi yo'l tutish kera ya'ni da'vogarni roziligi olinishi kerak, agar u nizoning asosini va predmetni o'zgartirishni rad etsa, prokurorda mustaqil ravishda o'zgartira olish imkoniyati cheklanishi kerak. Ushbu norma IPK ga yana aniqlik kiritadi deb o'ylayman.

Prokuror davlat manfaatlarini himoya qilishda erkin ya'ni u davlatning nomidan uning vakili bo'lib sudda ishtirok etadi va da'voning miqdorini oshirishi va mustaqil qaror qabul qilishi mumkin chunki bu yerda markazda umumdavlat manfaati turibdi.

Xususiy tadbirkorlar o'rtasidagi shartnomalarni bilan bog'liq masalalarda esa prokuror da'vo kiritisa, lekin tadbirkor bunda voz kechsa prokuror unga bo'ysunishi kerak, chunki bu yerda shaxsiy manfaat yotibdi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, prokuror IPK ning 41-moddasiga muvofiq ishda ishtirok etuvchi shaxs deb e'tirof etiladi va uning bir qancha huquq va majburiyatlari bor, ularni biz shartli ravishda umumiy va maxsus turlarga ajratishimiz mumkin.

Umumiy huquqlariga prokurorning qolgan barcha ishtirokchilarga ham tegishli bo'lgan huquqlarini keltirishimiz mumkin, xususan: ish materiallari bilan tanishish, undan ko'chirmalar olish, savollar berish, sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish), rad etish to'g'risida arz qilish, sud muhokamasi davrida yuzaga keladigan masalar bo'yicha o'z vajlarini ifoda etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish va boshqalar.

Maxsus huquqlari esa prokuror bergan arizasidan butunlay yoki qisman voz kechishi, sud hujjati ustidan protest keltirishi, ish mazmuni yuzasidan fikrini bildirishi, boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha o'z arz qilgan talablar bo'yicha sudga tushuntirishlar berishi va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Majburiyatlari esa ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida sud majlisida belgilangan tartibda rioya etishi va raislik qiluvchining farmoyishlariga bo'ysunishi, belgilangan holatlar mavjud bo'lganda o'z-o'zini rad etishi, prokuror boshqa shaxsning manfaatlarini ko'zlab, uni himoya qilish uchun kiritgan arizasidan voz kechishi, shaxsni ishni mazmunidan ko'rib chiqishni talab qilish huquqidan mahrum qilmaydi.

Prokurorning o'rni va asosiy maqsad yo'nalishlari asosiy qonunimiz Konstitutsiyada va „Prokuratura to'g'risida“ gi qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan. Iqtisodiy protsessual kodeksda esa ayna sud jarayonidagi o'rni va maqomi batafsil yoritilgan. Xususan, tumanlararo, tuman shahar iqtisodiy sudlariga da'vo arizasini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va ularga tenglashtirilgan prokurorlar va ularning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari sudlariga esa ushbu hududlar prokurorlari va ularning o'rinbosarlari taqdim etishi, Bosh prokuror va uning o'rinbosari esa barcha iqtisodiy sudlarga da'vo arizasini taqdim etishi.

mumkinligi keltirilgan. Bundan tashqari ushbu 49-moddaning 3-qismida prokuror aynan qaysi ishlarda qatnashishi mumkinligi aniq keltirilgan.

Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarni himoya qilishga doir da'vo arizasi kiritishi mumkinligi mustahkamlanganligiga qaramasdan, aynan ushbu nizoning pretmetini o'zgartira oladimi, yo'qmi shu masala biroz mujmal bo'lib qolibdi, shu sababli ushbu norma kiritilsa IPK ning 49-moddasi yanada batafsilroq bo'lardi deb o'ylayman.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

Konstitutsiya

<https://lex.uz/docs/-6445145>

Iqtisodiy protsessual kodeksi

<https://lex.uz/mact/-3523891>

Fuqarolik protsessual kodeksi

<https://lex.uz/docs/-3517337>

“Prokuratura to'g'risida” gi Qonun

<https://lex.uz/acts/-106197>